

## O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Uslubiy tushuntirishlar

### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **63 384,3** mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **59 780,7** mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – **3 063,5** mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – **540,1** mlrd so'mni tashkil qildi.

### O'zbekiston Respublikasida 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



### II. O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (**109,7 %**), Sirdaryo (**107,8 %**), Buxoro (**106,0 %**), Andijon (**105,7 %**) va Navoiy (**105,4 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi (**102,4 %**), Toshkent (**102,4 %**), Jizzax (**104,2 %**), Farg'ona (**104,4 %**) va Namangan (**104,6 %**) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot  
(xizmat)lari hajmi hududlar kesimida**

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	63384,3	105,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2008,1	102,4
Andijon viloyati	5236,1	105,7
Buxoro viloyati	5820,1	106,0
Jizzax viloyati	4452,5	104,2
Qashqadaryo viloyati	5273,8	104,8
Navoiy viloyati	3442,0	105,4
Namangan viloyati	4065,6	104,6
Samarqand viloyati	8126,7	105,3
Surxondaryo viloyati	5231,8	109,7
Sirdaryo viloyati	2045,8	107,8
Toshkent viloyati	7396,8	102,4
Farg'ona viloyati	5188,2	104,4
Xorazm viloyati	5096,8	105,0

**III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish**

2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **58 451,8** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **104,8 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **3 867,5** mlrd so'mni (**127,4 %**), chorvachilik mahsulotlari **54 584,3** mlrd so'mni (**103,3 %**) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (**7 642,3** mlrd so'm), Toshkent (**6 664,1** mlrd so'm), Buxoro (**5 589,8** mlrd so'm) va Surxondaryo (**5 000,1** mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi (**1 751,5** mlrd so'm), Sirdaryo (**1 790,8** mlrd so'm) va Navoiy (**3 098,8** mlrd so'm) viloyatlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (**109,7 %**), Sirdaryo (**107,7 %**), Buxoro (**105,8 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Toshkent (**101,8 %**), Farg'ona (**103,9 %**) hamda Namangan (**104,0 %**) viloyatlarida esa boshqa hududlarga nisbatan past o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **81,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **8,2 %** i fermer xo'jaliklariga, **10,2 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

#### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	3867,5	127,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	143,5	129,5
Andijon viloyati	291,8	128,7
Buxoro viloyati	429,2	140,3
Jizzax viloyati	156,0	151,7
Qashqadaryo viloyati	262,0	125,9
Navoiy viloyati	136,4	139,6
Namangan viloyati	215,2	127,0
Samarqand viloyati	243,6	133,4
Surxondaryo viloyati	865,3	144,7
Sirdaryo viloyati	165,6	138,4
Toshkent viloyati	469,4	100,9
Farg'ona viloyati	303,7	113,8
Xorazm viloyati	185,9	103,0

#### Yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



**2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi  
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	<b>Sabzavotlar</b>	<b>2025-yilning mos davriga nisbatan, %da</b>
O'zbekiston Respublikasi	101 891,4	129,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	435,1	129,5
Andijon viloyati	4 861,5	135,2
Buxoro viloyati	11 943,2	140,3
Jizzax viloyati	1 537,1	151,7
Qashqadaryo viloyati	4 149,9	125,8
Navoiy viloyati	6 000,7	142,7
Namangan viloyati	3 225,3	129,4
Samarqand viloyati	3 090,5	138,2
Surxondaryo viloyati	34 697,7	144,3
Sirdaryo viloyati	2 416,2	138,4
Toshkent viloyati	13 739,2	102,2
Farg'ona viloyati	9 894,9	119,1
Xorazm viloyati	5 900,1	103,0

Joriy davrda sabzavotlarning **9,6 %**i fermer xo'jaliklari, **51,2 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **39,2 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan.

**Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish**

2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi **54 584,3** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **103,3 %**ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (**7 398,7** mlrd so'm), Toshkent (**6 194,8** mlrd so'm), Buxoro (**5 160,6** mlrd so'm), Qashqadaryo (**4 715,9** mlrd so'm) va Farg'ona (**4 623,5** mlrd so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (**1 625,2** mlrd so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**1 608,0** mlrd so'm) va Navoiy viloyatini (**2 962,4** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (**104,9 %**), Xorazm (**104,7 %**), Samarqand (**104,1 %**), Navoiy (**104,0 %**) viloyatlarida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan **102,9 %**, sog'ib olingan sut **104,1 %**, olingan tuxum **105,7 %**, qirqib olingan jun **128,9 %**, olingan qorako'l teri **105,0 %** ni tashkil qildi.

### Yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Miqdori	O'sish (kamayish) sur'ati, %da
Go'sht ( <i>tirik vaznda</i> ), ming tonna	580,2	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	40,3	123,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	483,6	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	56,3	121,5
Sut, ming tonna	2 142,2	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	209,2	131,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 879,4	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	53,6	147,4
Tuxum, mln dona	1 626,0	105,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	309,5	107,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	738,9	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	577,6	109,3
Jun, tonna	1 237,7	128,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	284,2	131,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	812,6	120,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	140,9	201,3
Qorako'l teri, ming dona	482,4	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	63,2	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	393,1	103,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,1	117,7
Baliq, ming tonna	21,3	106,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	8,5	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,5	110,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,3	102,6

2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **6,9 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **83,4 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **9,7 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **9,8 %** fermer xo'jaliklari, **87,7 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **2,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **19,0 %** fermer xo'jaliklariga, **45,5 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **35,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning **23,0 %** fermer xo'jaliklari, **65,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **11,4 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining **13,1 %** fermer xo'jaliklariga, **81,5 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,4 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **39,9 %** fermer xo'jaliklariga, **7,0 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **53,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

#### 2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Go'sht (tirik vaznda) (ming tonna)	Sut (ming tonna)	Tuxum, mln dona	Baliq (ming tonna)
O'zbekiston Respublikasi	580,2	2 142,2	1 626,0	21,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17,5	59,8	86,1	0,9
Andijon viloyati	49,4	120,9	62,3	1,7
Buxoro viloyati	55,8	227,9	99,2	0,9
Jizzax viloyati	39,5	134,0	68,9	3,5
Qashqadaryo viloyati	49,1	164,0	100,3	0,5
Navoiy viloyati	33,7	96,7	99,4	1,5
Namangan viloyati	32,1	131,2	162,1	1,2
Samarqand viloyati	75,7	312,3	268,6	0,5
Surxondaryo viloyati	40,5	162,5	136,0	0,6
Sirdaryo viloyati	17,0	65,1	46,9	1,3
Toshkent viloyati	77,9	179,3	271,4	3,3
Farg'ona viloyati	44,4	256,9	122,1	1,0
Xorazm viloyati	47,5	231,6	102,7	4,5

#### IV. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhidagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shundan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

#### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:  
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63;

Aloqa uchun: [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)  
Tel.: +998 71 203-80-00 (1230)

